

MUSTAQILLIKDAN SO'NG SUD HUQUQ TIZIMIDA ISLOHATLAR

A. Soibjonov

Andijon Davlat Universiteti talabasi

Annotatsiya: Mazkur ishda Birinchi prezidentimiz tomonidan sud tizimiga berilgan e'tibor, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan olib borilgan islohatlar, demokratik jarayonlarning chuqurlashtirilishi haqida ma'lumotlar beriladi.

Kalit so'zlar: Prezident, Konstitutsiya, prinsip, Sud, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Milliy dastur, farmon.

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov Oliy Majlisning ikkinchi chaqiriq VI sessiyasida (2001-yil 29-avgust) «Adolat qonun ustivorligida» nomli ma'ruzasida sog'lom jamiyat uchun jinoyatchini jazolashdan ko'ra, jinoyatning oldini olish muhim ekanligini uqtirib o'tdi. Prezidentimiz ma'ruzalarida sudlar faoliyatiga baho berib «Sud bugungi kunda avvalgidek hukmron kommunistik tizimning qatag'on va jazolash apparati emas, balki u har bir inson va fuqaroning huquq hamda erkinliklarni ishonchli tarzda qo'riqlash va himoya qilishga qaratilgan chinakam mustaqil davlat institutiga aylanmoqda. Fuqarolarning sudga ishonchi mustahkamlanib bormoqda»,- dedi. Shuningdek, ma'ruzada sud hokimiyati tizimidagi kamchiliklarga ham to'xtalib o'tildi. Bu borada Prezident: «...afsuski, sudyalar, prokuratura va tergov organlari xodimlari, bir so'z bilan aytganda, qabul qilingan yangi qonunlarni hayotga tatbiq etishi lozim bo'lgan kishilarning dunyoqarashi va tafakkuri ancha qiyinchilik bilan o'zgarayapti. Eng avvalo jazolashning repressiv, ozodlikdan mahrum qilish hollarini qisqartirish hisobiga qonunchilikning adolat va insoniylik kabi tamoyillarining kuchayishini va

amalda qo'llanishini ta'minlashimiz zarur»¹deydi. Ma'ruzada Jinoyat va Jinoyat-protsessual kodekslariga kiritilayotgan o'zgarishlar, masalan, 110 turdagi uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlarning ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyatlar toifasiga o'tkazish, 12 turdagi jinoyatni og'ir toifadan uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlar toifasiga, 7 turini esa o'taog'ir jinoyatlar toifasidan og'ir jinoyatlar toifasiga o'tkazish haqidagi takliflar bayon qilindi. Shuningdek, iqtisodiy sohada jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan iqtisodiy ta'sir choralari qo'llash imkoniyatlarini kengaytirish zarurligi, butun jahonda muhokama etilayotgan muhim masalalardan biri-o'lim jazosini jinoiy jazo chorasiga sifatida qolayotganligi bilan bog'liq muammolar, qonunchiligimizda jinoiy jazo turi sifatida mol-mulkni musodara qilish jazosini qo'llash tartibini qayta ko'rib chiqish kerakligi ta'kidlandi. Insoniyat tarixida yangi davr-Inson huquqlari davri boshlandi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti 1995-2005-yillarni kurrimizda «Inson huquqlari o'n yilligi»deb e'lon qildi. O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimovning ma'ruzalarida inson huquqlari sohasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan quyidagi besh strategik yo'nalish belgilab berilgan:

-inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishning samarali mexanizmini ta'minlash;

-inson huquqlari bo'yicha Xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan tamoyillari va normalari asosida milliy qonunchilikni takomillashtirish;

-qabul qilingan qonunlarga og'ishmay amal qilish mexanizmini ishlab chiqish va ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida qonun ustuvorligini ta'minlash;

-sudlov islohotini amalga oshirish yo'li bilan sud tizimini demokratlashtirish;

-aholi ayniqsa yoshlar va mansabdor shaxslar, huquq-tartibot idoralari xodimlari, o'rtasida huquqiy tarbiya ishlarini tubdan yaxshilash, ularning huquqiy ongi va madaniyatini oshirish.

Demokratik jarayonlarni chuqurlashtirishning birdan bir zaruriy sharti sud-

¹ Shavkat Mirziyoyev. Konstitutsiya-erkin va farovon xayotimiz,mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustaxkam poydevoridir,Toshkent, O'zbekiston, 2018, 11 -b

huquq organlarining ishlarini isloh qilish va erkinlashtirishni jadallashtirishdan iborat. Sudlar faoliyatiga prokuraturaning aralashmasligi, prokuror va advokatlarni huquqlarini tenglashtirish, sudlarning tarbiyaviy rolini oshirish lozimligini taqqoslab ko'rsatadi. Xavfsiz jinoyatlarni ma'muriy choralar bilan almashtirish natijasida so'nggi 2,5 yil davomida 11 milrd. so'm undirildi. Har yuz ming kishiga hisoblaganda O'zbekistonda 158 kishi qamoqda muddatini o'tamoqda. Bu ko'rsatkich AQShda 715, Rossiyada 584, Ukrainada 416, Qozog'istonda 386 kishidan iborat. O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng o'tgan qisqa davr ichida insonning huquq va erkinliklari to'g'risida milliy qonunchilik tizimini tashkil etuvchi yuzdan ortiq qonunlar qabul qilindi. O'zbekiston inson huquqlari bo'yicha 40 ga yaqin xalqaro shartnomaga qo'shildi va ularga bizning mamlakatimizda ham amal qilinmoqda. O'zbekiston Respublikasida inson huquqlari va erkinliklarini muhofaza qilishning ta'sirli vositasini barpo etish, xalqaro va huquqni muhofaza qilish tashkilotlari bilan hamkorlikni kengaytirish, davlat muassasalari xodimlari va barcha respublika aholisining inson huquqlari bo'yicha madaniyatini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning «Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy Markazini tuzish to'g'risida» 1996-yil 31-oktabr Farmoni e'lon qilindi. O'zbekiston Respublika Oliy Majlisi 1997-yil 29-avgustda «Jamiyat huquqiy madaniyatini yuksaltirish Milliy dasturi»ni tasdiqladi. Dasturda: «Jamiyat va davlat taraqqiyotini hozirgi holati huquqiy munosabatlar barcha ishtirokchilarini huquqiy madaniyatini, huquqiy savodxonligini har tomonlama oshirishni talab qilmoqda. Huquqiy madaniyat huquqiy bilim, huquqiy e'tiqod va izchil amaliy faoliyat majmui sifatida jamiyat va davlat oldida turgan vazifalarni muvaffaqiyatli hal etilishini ta'minlaydi. Milliy dasturning maqsad ahamiyati aholining barcha qatlamlarini huquqiy savodxonlikka erishishlari, yuksak darajadagi huquqiy ongga ega bo'lishlari hamda huquqiy bilimlarni kundalik hayotda qo'llay olishlari uchun huquqiy madaniyatni shakllantirishning keng qamrovli muntazam tizimini yaratishdi²r»-deb ta'kidlangan.

² I. Karimov Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisida. 2005y. 28 yanvar.
www.pedagoglar.org

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 21 oktabrdagi "Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni qamrovi mazmun-mohiyat jihatidan serqirraligi bilan e'tiborni o'ziga jalb etadi. Mazkur normativ-huquqiy hujjatni qabul qilishdan maqsad — sud orqali inson huquqlari va erkinliklarini yanada ishonchli himoya qilish mexanizmini zamonaviy davlatchilik talablariga moslashtirish hamda jamiyat ehtiyojlarini inobatga olgan holda sud organlari faoliyatida odil sudlov darajasini oshirishdan iboratdir.

Avvalambor, Konstitutsiyamizda sud hokimiyati faoliyatiga tegishli qator me'yorlar o'zining aniq ifodasini topganini alohida qayd etish o'rinlidir. Shu bois Farmonda eng muhim vazifalardan biri sifatida aynan "sud hokimiyatining mustaqilligi to'g'risidagi konstitutsiyaviy normalarga va odil sudlovni amalga oshirish faoliyatiga aralashganlik uchun javobgarlikning muqarrarligi prinsipiga og'ishmay amal qilinishini ta'minlash" belgilab qo'yilgani bejiz emas, albatta. Fikrimizcha, bu holat barcha sudlar, ya'ni fuqarolik, jinoyat va xo'jalik sudlari tomonidan ishlarni muhokama qilish va tegishli qarorlar — hukm, hal qiluv qarori, ajrim yoki qaror qabul qilish bilan bog'liq barcha bosqichlarda (birinchi instansiya, apellyatsiya, kassatsiya yoki nazorat tartibida) biron-bir mansabdor shaxsning bevosita aralashishi mumkin emasligini anglatadi. Binobarin, Konstitutsiyamiz, "Sudlar to'g'risida"gi qonun va Jinoyat-protsessual kodeksida "sudyalar mustaqildirlar, faqat qonunga bo'ysunadilar", degan prinsip o'z ifodasini topgan. Mazkur tamoyil sudyaning faoliyat ko'rsatishida mustaqilligi kafolatlanganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, barcha sud tarmoqlaridagi sudyalarning o'z ish yurituvidagi ishlarni mazmunan hal etishda faqat tegishli qonunlar talablariga qat'iy rioya qilishlari, qonunlar talabidan og'ishmagan holda qaror qabul qilishi lozimligini anglatadi. Farmonda belgilangan muhim vazifalardan yana biri-nafaqat sud organlari, shu bilan birga, ushbu huquqiy-me'yoriy hujjat bilan faoliyati qamrab olingan huquqni muhofaza qiluvchi organlar, shuningdek, davlat organlaridagi yuridik xizmatlar mas'ul xodimlarining jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlarini o'z vaqtida hal etish yuzasidan mas'uliyatini yanada oshirish zarurligi qayd etilgani

hisoblanadi. "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi qonun qabul qilinganidan buyon mamlakatimizda fuqarolarning murojaatini hal etishning huquqiy mexanizmi tubdan o'zgarganidan barchamiz xabardormiz. Misol uchun hukumat portaliga fuqarolar tomonidan yo'llangan ariza va shikoyatlar yuzasidan tegishli vazirlik va idoralar tomonidan shoshilinch choralar ko'rilayotgani, bunda fuqarolarning huquq va manfaatining ustuvorligiga e'tibor berilayotganini keng jamoatchilik e'tirof etayotganini qayd etish joiz. Shu o'rinda Birinchi Prezidentimizning "islohot islohot uchun emas, inson manfaati uchun", degan purhikmat g'oyalari izchil va tizimli davom ettirilayotgani har bir fuqaroning qalbiga quvonch bag'ishlashi barobarida, kelajakka ishonch bilan yashashga undayotganini ta'kidlash darkor.

Farmonda sudlar va huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatida nafaqat sodir etilgan u yoki bu turdagi huquqbuzarliklar yoki nizolar yuzasidan aybdor shaxslarni qonun hujjatlarida belgilangan tarzda javobgarlikka tortib tegishlicha qaror qabul qilish, shu bilan birga, sodir etilgan huquqbuzarlikning sabablari va ularning kelib chiqish shart-sharoitlarini chuqur o'rganish, aniqlash barobarida qonunbuzarliklarni bartaraf etish yuzasidan maqsadli va samarali choralar ko'rishga qaratilgan muhim vazifalar belgilangani e'tiborga molik. Mazkur vazifalar zahirida sudyalari va huquqni muhofaza qiluvchi organlarning mansabdor shaxslaridan o'z "faoliyatini tashkil etishda huquqni qo'llash amaliyoti va amaldagi qonun hujjatlarini takomillashtirish yuzasidan" takliflarini tegishlicha yuborishga e'tibor berishlari shartligi mujassam.

Mazkur huquqiy-me'yoriy hujjatda, shuningdek, "yuksak axloqiy-idoraviy va kasbiy fazilatlarga ega, yuklatilgan vazifalar va amalga oshirilayotgan islohotlarning samarali bajarilishini ta'minlashga qodir bo'lgan kadrlarni shaffof tanlov asosida ishga qabul qilish tizimini takomillashtirish" masalasi muhim vazifalardan biri etib belgilangani ham ayni muddaodir.

E'tiborli jihati shundaki, Farmonning ikkinchi bandida sudyalik lavozimiga tayinlash (saylash) muddatlariga qat'iy aniqlik kiritilgan. Ya'ni sudyalik lavozimiga birinchi marotaba tayinlash besh yilga, ikkinchi marotaba — o'n yil, keyingisida

muddatsiz tayinlanish (saylanish) imkoni yaratilmoqda. Bu sudyalarning yoshi, malakasi, kasb mahoratini inobatga olgan holda uzoqroq muddatga faoliyat ko'rsatishini kafolatlaydi. Bu esa, aholining sud hokimiyatiga bo'lgan ishonchini yanada oshiradi, sudyalarning esa, uzoq yillar davomida lavozimini sidqidildan bajarishiga va nihoyat, sudning hokimiyat tarmog'ida nufuzini ortishiga mustahkam zamin yaratadi. Mazkur huquqiy-me'yoriy hujjatning uchinchi bandida amaldagi qonun hujjatlarini yangi mazmun-mohiyatli me'yorlar bilan boyitishga taalluqli muhim masalalar aks etgan. Ularni hal etish muddati ham belgilangan. Ya'ni 2017 yilning 1 apreligacha Jinoyat, Jinoyat-protsessual, Fuqarolik-protsessual, Xo'jalik-protsessual kodekslar, shuningdek, "Sudlar to'g'risida"gi qonun va boshqa qator qonunlarga qo'shimcha va o'zgartishlar kiritish yo'li bilan Farmon talablarini bajarish choralari ko'riladi. Jumladan, jinoyat sodir etishda gumon qilingan shaxslarni ushlab turish muddatini (72 soatdan 48 soatgacha) qisqartirish; qamoqqa olish va uy qamog'i tarzidagi ehtiyot choralariga mutanosib ravishda dastlabki tergov muddatlarining eng ko'p muddatini kamaytirish (1 yildan 7 oygacha); tergov harakatlari sirasiga kirgan pochta-telegraf jo'natmalarini xatlab qo'yish va eksqumatsiya qilish uchun sudlar tomonidan sanksiya berish; qamoqqa olish yoki uy qamog'i tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash rad etilganda sud tomonidan boshqa muqobil ehtiyot chorasini qo'llash; sud tomonidan jinoyat ishini qo'shimcha tergov yuritishga qaytarish institutini bekor qilish, ya'ni Jinoyat-protsessual kodeksining umumiy qismi bilan bog'liq beshta institutni takomillashtirish yuzasidan pishiq va puxta qonun loyihasi qabul qilinadi. Farmonning beshinchi bandi "qonun hujjatlari loyihalarini jamoatchilik o'rtasida, shu jumladan, davra suhbatlari, seminarlar va konferensiyalar o'tkazish orqali keng muhokama qilishni tashkil etish"ni nazarda tutadi. Aynan shunday yondashuv Farmonning ijrosini to'liq ta'minlaydi. Mazkur Farmon O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 110-moddasi talabini to'liq amalga oshirishga yo'naltirilgani bilan ahamiyatlidir. Ya'ni Oliy sud tarkibida fuqarolik, jinoyat sudlari bilan bir qatorda endi ma'muriy sudlarning tashkil etilayotgani yurtimizda 2000 yilda asos solingan sudlarning ixtisoslashuvini yanada kuchaytiradi. Uning O'zbekistonda tashkil etilishi sud hokimiyatining tarmoqlarga

bo'linishini ta'minlash bilan birga, jahondagi ko'pchilik rivojlangan davlatlarda bo'lgani singari, ma'muriy sudlarning alohida faoliyat ko'rsatishiga erishish imkonini beradi. Bu, o'z navbatida, odil sudlovga erishish darajasini yanada mukammallashtiradi.

Xulosa o'rnida aytish joizki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonida belgilangan vazifalar asosida sud-huquq tizimini isloh etish yo'nalishidagi huquqiy yechimini topishi zarur bo'lgan qator muhim va dolzarb masalalar bo'yicha qonunlarning qabul qilinishi aholining davlatimizda amalga oshirilayotgan oqilona siyosatga ishonchini yanada oshirmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Xoliqova.O'zbekistonning eng yangi tarixi.Toshkent-2021.
2. Murtozayeva."O'zbekiston tarixi" .Toshkent-2005.
3. Shavkat M.M Konstitutsiya-erkin va farovon xayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustaxkam poydevoridir,Toshkent, O'zbekiston-2018.
4. www.ziyo.uz.com